



MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN



MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATION OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN



ANDIJAN STATE MEDICAL
INSTITUTE



KOREA NATIONAL UNIVERSITY OF
TRANSPORTATION

COLLECTION OF MATERIALS

of the International Scientific and Practical
Conference and Master Classes on the topic:
“The Future of Emergency Medical Care: The
Role of Paramedics – Advancing Professional
Training”



January 21–22, 2026



Andijan City, 1
Yu. Otabekov
Street.



Contact Person
(0-374) 223-94-60



Official Website
www.adti.uz

“The Future of Emergency Medical Care: The Role of Paramedics – Advancing Professional Training”

Editorial team

CHIEF EDITOR

M.M.Madazimov

**DEPUTY CHIEF
EDITORS**

K.Z.Salaxiddinov

**MEMBERS OF THE
EDITORIAL BOARD**

**Sh.X.Islamov
Sh.Y.Bustanov**

**COMPUTER
GRAPHICS EDITORS**

F.Abdulxodimov



Contact Person
(0-374) 223-94-60



Official Website
www.adti.uz

PARAMEDITSINA SOHASIDA TIBBIY AKADEMIK MULOQOTGA O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA EHTIYOJLAR TAHLILI

Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi — dotsent, xorijiy tillar kafedrası, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya: Mazkur tezis parameditsina sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tibbiy akademik muloqotga o‘qitish jarayonida mavjud muammolar va dolzarb ehtiyojlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalari paramediklar uchun akademik muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: parameditsina, akademik muloqot, tibbiy ta‘lim, kasbiy kompetensiya, ehtiyojlar tahlili.

Bugungi kunda parameditsina sohasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat klinik bilim va amaliy ko‘nikmalar, balki tibbiy akademik muloqot kompetensiyalariga ham bevosita bog‘liqdir. Tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, klinik holatlarni aniq va tushunarli tarzda bayon etish, shuningdek, jamoa ichida va ilmiy muhitda samarali muloqot olib borish paramedik faoliyatining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Ammo amaldagi ta‘lim tizimida paramediklarni tibbiy akademik muloqotga o‘qitish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Asosiy muammolar sifatida maxsus o‘quv modullarining yetishmasligi, tibbiy terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarining past darajada shakllanganligi hamda yozma va og‘zaki akademik nutqni rivojlantirishga kam e‘tibor qaratilishini ko‘rsatish mumkin. Natijada, bu holat kasbiy faoliyat jarayonida axborot almashinuvi samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ehtiyojlar tahlili parameditsina ta‘limida akademik muloqotga yo‘naltirilgan maxsus treninglar, interaktiv mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, klinik vaziyatlarni taqdim etish, tibbiy hisobotlar tayyorlash va xalqaro tibbiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ehtiyojlarga mos ta‘lim yondashuvlarini joriy etish paramediklarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va tibbiy xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

PARAMEDIKLARNI QAYTA TAYYORLASH TIZIMINING SHOSHILINCH TIBBIY YORDAMDAGI AHAMIYATI

Toirova N.N., Mamajonova N.A
Toshkent davlat tibbiyot univesiteti

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy shoshilinch tibbiy yordam tizimi doimiy ravishda yangilanib borayotgan diagnostika va davolash usullarini, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Paramediklar faoliyati shifokorgacha bo‘lgan bosqichda amalga oshirilgani sababli, ularning bilim va amaliy ko‘nikmalari doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Amaldagi bilimlarning eskirishi, favqulodda holatlar strukturasi va klinik protokollarning o‘zgarishi paramediklarni qayta tayyorlash tizimining dolzarbligini oshiradi. Qayta tayyorlash jarayoni paramediklarning kasbiy kompetensiyasini saqlab qolish va oshirish, shoshilinch tibbiy yordam sifatini yaxshilash hamda bemor hayotini saqlab qolish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Paramediklarni qayta tayyorlash jarayonining samaradorligini baholash va uning shoshilinch tibbiy yordam sifatiga ta‘sirini aniqlash.

Tadqiqot material va usullari: Tadqiqot shoshilinch tibbiy yordam tizimida faoliyat yuritayotgan paramediklarni qayta tayyorlash kurslari asosida olib borildi. Tadqiqot materiallari



sifatida o‘quv dasturlari, malaka oshirish mashg‘ulotlari, simulyatsion treninglar hamda klinik vaziyatlar tahlil qilindi. Tadqiqotda analitik, taqqoslash, kuzatuv va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etgan paramediklarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan. Ayniqsa, shoshilinch holatlarda bemor holatini tez baholash, mustaqil qaror qabul qilish va birlamchi reanimatsion choralarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichlari oshgani aniqlandi. Qayta tayyorlangan paramediklar tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy yordamda asoratlar kamroq kuzatilgan.

Xulosa: Paramediklarni qayta tayyorlash tizimi shoshilinch tibbiy yordam sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga asoslangan qayta tayyorlash jarayonini muntazam tashkil etish paramediklarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi hamda favqulodda holatlarda bemor hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR

Ermatov N.J., Eshkuvatov K.R.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

So‘nggi o‘n yilliklarda tabiiy ofatlar, texnogen avariylar, iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq favqulodda holatlar hamda epidemiologik tahdidlarning ko‘payishi global sog‘liqni saqlash tizimlari oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu sharoitda favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish tizimining samaradorligi nafaqat tibbiy infratuzilma rivojlanganligiga, balki boshqaruv modeli, tezkor qaror qabul qilish mexanizmlari va resurslardan oqilona foydalanishga ham bevosita bog‘liqdir. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tizimi markazlashtirilgan boshqaruv, integratsiyalashgan axborot tizimlari va standartlashtirilgan tibbiy protokollar asosida faoliyat yuritadi. Biroq ushbu tajribani milliy sog‘liqni saqlash tizimlariga to‘liq va bevosita ko‘chirish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki hududiy farqlar, demografik tuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda sog‘liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanish darajasi ushbu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirishda xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi – favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirishda xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishning samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari, rivojlangan davlatlarning favqulodda tibbiy yordam bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari hamda milliy sog‘liqni saqlash tizimiga oid me‘yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha ochiq statistik ma’lumotlar solishtirma, tizimli va mantiqiy tahlil usullari yordamida o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, xalqaro tajribaga asoslangan boshqaruv va axborot almashinuvi mexanizmlarini joriy etish favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam brigadalarining hodisa joyiga yetib borish vaqtini **10–15 % ga qisqartirish** imkonini berishi aniqlangan. Milliy yondashuvlar doirasida hududiy xususiyatlar va mavjud infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olish shoshilinch tibbiy yordam xizmatining uzluksizligini **12–18 % ga oshirishga** xizmat qilishi kuzatildi.

Xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar uyg‘unligi favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish sifatining **15–20 % oraliq‘ida yaxshilanishi** bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat birlamchi tibbiy yordam samaradorligini oshirish va og‘ir klinik asoratlar xavfini kamaytirish bilan izohlanadi.





Olingan natijalar integratsiyalashgan yondashuv favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirishda xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv shoshilinch tibbiy yordamning tezkorligi, sifati va barqarorligini ta‘minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

BOLALARDA BILAK–TIRSAK SUYAKLARI YOPIQ SINISHIDA SHOSHILINCH YORDAM CHORALARI

Ganiyev A.K., Karimov A.Y.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Mavzuning dolzarbligi: Bolalar orasida tayanch-harakat tizimi jarohatlari ichida bilak va tirsak suyaklarining yopiq sinishlari yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Turli manbalarga ko‘ra, bolalik davridagi barcha suyak sinishlarining 40–45 foizi yuqori qo‘l sohasiga to‘g‘ri keladi. Shoshilinch yordamning kechikishi yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilishi og‘ir asoratlarni, jumladan suyak bo‘laklarining siljishi, nerv-qon tomir shikastlanishi va qo‘l funksiyasining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli paramediklarning ushbu jarohatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat algoritmlarini bilishi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda bilak–tirsak suyaklari yopiq sinishida shoshilinch yordam ko‘rsatishning samarali choralari va paramediklarning kasbiy tayyorgarligi ahamiyatini baholash.

Tadqiqot material va usullari: Tadqiqotda shoshilinch tibbiy yordam brigadalari tomonidan xizmat ko‘rsatilgan 6–14 yoshdagi bolalarda uchragan bilak–tirsak suyaklari yopiq sinish holatlari retrospektiv tahlil qilindi. Klinik kuzatuv, tibbiy hujjatlarni o‘rganish hamda immobilizatsiya va transportirovka usullarining natijalari solishtirma tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari: Tahlil natijalariga ko‘ra, shoshilinch bosqichda to‘g‘ri immobilizatsiya qilingan bemorlarda og‘riq sindromi va suyak bo‘laklari siljishi 25–30 foizga kam kuzatildi. Paramediklar tomonidan standart algoritmlar asosida ko‘rsatilgan yordam keyingi statsionar davolash muddatini qisqartirishga va asoratlarni sonini kamaytirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Xulosa: Bolalarda bilak–tirsak suyaklari yopiq sinishida malakali va o‘z vaqtida ko‘rsatilgan shoshilinch yordam ijobiy klinik natijalarning asosiy omilidir. Paramediklarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini oshirish shoshilinch tibbiy yordam kelajagini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

YURAK-QON TOMIR FAVQULODDA HOLATLARIDA PARAMEDIKLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Isaqova Nasiba Rahmatjonovna
G‘aniyeva Dilnavozxon Dilmurod qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzu dolzarbligi: Hozirgi davrda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari inson salomatligi va hayot sifati uchun eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida ushbu kasalliklar o‘lim ko‘rsatkichlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning katta qismi favqulodda holatlar bilan namoyon bo‘ladi. O‘tkir miokard infarkti, yurak to‘xtashi, insult, og‘ir yurak ritmi buzilishlari kabi holatlar tezkor va samarali tibbiy yordamni talab qiladi. Ushbu jarayonda tibbiy yordamning birinchi bosqichi bo‘lgan shifokorgacha bo‘lgan yordamning sifati bemorning keyingi hayotiy prognozini belgilab beradi.



“The Future of Emergency Medical Care: The Role of Paramedics – Advancing Professional Training”



Favqulodda yurak-qon tomir holatlarida paramediklar birinchi bo‘lib bemor bilan muloqotga kirishadi va ularning to‘g‘ri qaror qabul qilishi, holatni tez baholashi hamda zarur reanimatsion choralarni o‘z vaqtida bajarishi nihoyatda muhimdir. Ammo amaliyotda paramediklarning bilim va ko‘nikmalari har doim ham zamonaviy tibbiyot talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli ularning kasbiy tayyorgarligini doimiy ravishda takomillashtirib borish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy tibbiyotda innovatsion texnologiyalar, raqamli tizimlar va xalqaro klinik algoritmlarning keng joriy etilishi paramediklar faoliyatiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Simulyatsion mashg‘ulotlar, telemeditsina, avtomatlashtirilgan defibrillyatorlar va zamonaviy diagnostik usullar favqulodda holatlarda yordam ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan, yurak-qon tomir favqulodda holatlarida paramediklar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yurak-qon tomir tizimi bilan bog‘liq favqulodda holatlarda paramediklar faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida paramediklarning favqulodda yurak-qon tomir holatlarida bajaradigan amaliy vazifalari, ularning bilim va ko‘nikmalarining hozirgi holati tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotda zamonaviy ta‘lim usullari, jumladan simulyatsion treninglar va interaktiv mashg‘ulotlarning paramediklar tayyorgarligiga ta‘siri o‘rganiladi. Telemeditsina texnologiyalari orqali masofaviy maslahat olish va real vaqt rejimida shifokor bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarining ahamiyati baholanadi. Tadqiqot natijasida paramediklar faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqot material va usullari: Tadqiqot jarayonida yurak-qon tomir favqulodda holatlariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, tibbiy statistik ma‘lumotlar hamda xalqaro klinik protokollar chuqur tahlil qilindi. Jumladan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Yevropa kardiologlar jamiyati va Amerika yurak assotsiatsiyasining yurak-qon tomir favqulodda holatlar bo‘yicha tavsiyalari o‘rganildi.

Tadqiqotda analitik, taqqoslash va kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tez tibbiy yordam brigadalarining amaliy faoliyati kuzatilib, favqulodda yurak-qon tomir holatlarida ko‘rsatilgan yordam samaradorligi baholandi. Simulyatsion mashg‘ulotlar natijalari asosida paramediklarning amaliy ko‘nikmalari tahlil qilinib, an‘anaviy va zamonaviy o‘qitish usullarining samaradorligi solishtirildi. Shuningdek, BLS va ACLS algoritmlarining paramediklar faoliyatidagi qo‘llanilishi o‘rganildi.

Tadqiqot natijasi: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar va ta‘lim usullari asosida tayyorlangan paramediklar yurak-qon tomir favqulodda holatlarida ancha tezkor va samarali faoliyat olib boradi. Simulyatsion treninglar paramediklarda real vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, stressga bardoshlilik va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Telemeditsina texnologiyalaridan foydalanish esa tashxis qo‘yish va davolash jarayonini tezlashtirib, shifokorlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Masofadan EKG natijalarini uzatish orqali o‘tkir miokard infarktini erta aniqlash imkoniyati oshadi. Tadqiqot davomida zamonaviy algoritmlar asosida faoliyat yuritayotgan paramediklar tomonidan ko‘rsatilgan yordam natijasida bemorlarda asoratlar va o‘lim holatlarining kamaygani kuzatildi.

Xulosa: Yurak-qon tomir favqulodda holatlarida paramediklar faoliyatini takomillashtirish sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, simulyatsion mashg‘ulotlar tashkil etish, telemeditsina imkoniyatlaridan keng foydalanish va xalqaro klinik protokollarni amaliyotga tatbiq etish paramediklar kasbiy salohiyatini oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, paramediklar tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish yurak-qon tomir favqulodda holatlarida ko‘rsatiladigan tez tibbiy yordam





sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu esa aholining hayot sifatini oshirish va o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

PARAMEDIKLARNI TAYYORLASH TIZIMINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Koshimbetova G.K., Toshmamatova M.S.
Toshkent davlat tibbiyot univesiteti

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda shoshilinch tibbiy yordam tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan paramediklarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Favqulodda holatlar, yurak-qon tomir kasalliklari, yo‘l-transport hodisalari va o‘tkir jarohatlar sonining oshib borishi paramediklarni zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalar asosida tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Paramediklar shifokorgacha bo‘lgan bosqichda bemorga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatuvchi asosiy mutaxassislar bo‘lib, ularning malakali tayyorgarligi bemor hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois paramediklarni tayyorlash tizimini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Paramediklarni tayyorlash jarayonining samaradorligini baholash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-amaliy ahamiyatini o‘rganish.

Tadqiqot material va usullari: Tadqiqot paramediklarni tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ta‘lim muassasalari va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari bazasida olib borildi. Tadqiqot materiallari sifatida o‘quv dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsion treninglar hamda klinik kuzatuv natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotda analitik, taqqoslash, statistik va kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Shuni ko‘rsatdiki, amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan, simulyatsion mashg‘ulotlarga asoslangan ta‘lim tizimi paramediklarning mustaqil qaror qabul qilish, bemor holatini tez va to‘g‘ri baholash hamda shoshilinch tibbiy muolajalarni o‘z vaqtida bajarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Yaxshi tayyorgarlikka ega paramediklar tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy yordam samaradorligi yuqori bo‘lib, asoratlar va o‘lim holatlari kamroq kuzatilgan.

Xulosa: Paramediklarni tayyorlash tizimini zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida takomillashtirish shoshilinch tibbiy yordam sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Amaliy yo‘naltirilgan ta‘lim va muntazam malaka oshirish paramediklarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirib, bemor hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi.

SHOSHILINCH TIBBIYOTDA PARAMEDIKLAR FAOLIYATI, KADR RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASH VA XIZMATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

A.M. Mamadiyev
RTTYoM Andijon viloyati filiali.

Mavzuning dolzarbligi. Oxirgi yillarda shoshilinch tibbiy yordamga murojaatlar sonining barqaror ortishi, kasalxonalargacha bo‘lgan masofa, transport kechikishlari va shifokorlar yetishmovchiligi shoshilinch xizmat samaradorligini pasaytirishi kuzatilmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, paramedik instituti tizimda birinchi yordamni ko‘rsatish, favqulodda holatlarda vaqtni yutish va shifokorlarning yukini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun paramediklar faoliyatini rivojlantirish, tashkiliy jarayonlarni optimallashtirish va kadr resurslarini oqilona taqsimlash O‘zbekistonda tez tibbiy yordam xizmatini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.



“The Future of Emergency Medical Care: The Role of Paramedics – Advancing Professional Training”



Tadqiqot maqsadi. Shoshilinch tibbiyot tizimida paramediklar rolini kuchaytirish, ularning funksional vakolatlarini to‘g‘ri taqsimlash orqali tibbiy yordamning tezligi va sifati oshishiga erishish, shuningdek xizmatni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish.

Tadqiqot materiali va usullari Tadqiqot davomida mamlakatimizning shoshilinch tibbiy yordam tizimiga oid mavjud statistik ma’lumotlar, 103 xizmatining tashkiliy tuzilmasi, brigadalar tarkibi va chaqiriqlar taqsimoti o‘rganildi. Paramediklarning real amaliy roli, vazifa hajmi va shifokorlarga tushayotgan yuklamani baholash maqsadida tizimli tahlil usuli qo‘llanilib, chaqiriqlarni qabul qilish, brigada yuborish, hodisa joyida birlamchi yordam ko‘rsatish va bemorni shifoxonaga yetkazish jarayonlari bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yondashuvi orqali O‘zbekiston tajribasi rivojlangan davrlarning paramedik tizimlari bilan solishtirildi, ularning vakolatlari, o‘quv modeli va xizmat tashkiliy mexanizmlaridagi ustunliklar aniqlanib, milliy tizimga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Resurs taqsimoti va ish yuklamasini baholash yondashuvi qo‘llanilib, paramediklar tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan chaqiriqlar ulushi, brigadalarining optimal tarkibi hamda shifokor taqchilligini qoplashdagi salohiyat hisobga olindi va natijalar tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston shoshilinch tibbiy yordam tizimida paramediklar salohiyatidan foydalanish darajasi yetarli emas, ammo ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali xizmat samaradorligini sezilarli oshirish mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 103 xizmatiga tushayotgan chaqiriqlarning 67–78%i (yengil va o‘rta darajadagi holatlar) paramedik tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin bo‘lgan toifaga kiradi. Tizimli tahlil natijalari paramediklar vakolatlarini kengaytirish orqali shifokor ishtiroki talab etiladigan chaqiriqlar ulushi 22–25% dan 34%gacha qisqarishi, natijada shifokorlarning asosiy resurslari og‘ir bemorlarga yo‘naltirilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Modellashtirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, paramediklar boshchiligidagi brigadalar ulushi 1,5 barobar oshirilsa, chaqiriqqa yetib borishning o‘rtacha vaqti shahar sharoitida 12–15%, qishloq hududlarida esa 18–25%gacha qisqarishi mumkin. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, xalqaro standartga moslashtirilgan tayyorlov dasturi joriy etilganda paramediklarning klinik qaror qabul qilish aniqligi 20–30%ga yaxshilanadi, telemeditsina integratsiyasi esa noto‘g‘ri gospitalizatsiya holatlarini 10–14%ga kamaytiradi. Demak, paramediklar faoliyatini kengaytirish va kadr resurslarini optimal taqsimlash natijasida tizimning umumiy samaradorligini 25–35%ga oshirish, shoshilinch yordamning o‘rtacha javob vaqtini esa milliy darajada 15–20%ga qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shoshilinch tibbiy yordam tizimida paramediklar faoliyatini kengaytirish va kadrlarni oqilona taqsimlash xizmat samaradorligini sezilarli oshiradi. Optimal tashkiliy yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali chaqiriqlarga javob vaqtini 15–25%ga qisqartirish va xizmat sifatini 25–35%ga oshirish mumkin. Shu bilan, paramediklarni tizimning strategik bo‘g‘ini sifatida rivojlantirish shoshilinch tibbiy yordam sifatini yaxshilashning samarali yo‘lidir.

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAMDA PARAMEDIKLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Mamasaidova Muxtasar Muzaffarjon qizi

Central Asian Medical University - Davolash ishi yo‘nalishi talabasi

Aliyev Doniyor Soibjon o‘g‘li

Central Asian Medical University - Anatomiya kafedrasi assistenti, nevropatolog

Dolzarbligi: Bugungi kunda dunyo miqyosida aholi sonining oshishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, yo‘l-transport hodisalari, texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarning ko‘payishi shoshilinch tibbiy yordam tizimiga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklari, insult, travmalar, o‘tkir zaharlanishlar va boshqa hayot uchun xavfli holatlarda





bemorga birinchi daqiqalarda ko‘rsatilgan tibbiy yordam uning keyingi sog‘ayishi yoki hayotdan ko‘z yumishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mazkur jarayonda paramediklar shoshilinch tibbiy yordamning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ular bemorga kasalxonagacha bo‘lgan bosqichda birlamchi diagnostika, hayotni saqlab qolishga qaratilgan tezkor muolajalar va tibbiy muassasaga xavfsiz transportirovka qilish vazifalarini bajaradilar. Shu bois paramediklar faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi, ularning kasbiy tayyorgarligi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va texnik ta‘minoti shoshilinch tibbiy yordam samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va xalqaro standartlarning joriy etilishi paramediklar faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Mavjud muammolar — kadrlar yetishmasligi, malaka darajasining notekisligi, tashkiliy boshqaruvdagi kamchiliklar va favqulodda vaziyatlarda ish yuklamasining yuqoriligi ushbu sohada ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi shoshilinch tibbiy yordam tizimida paramediklar faoliyatini samarali tashkil etishning tashkiliy, kasbiy va funksional jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda favqulodda holatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot paramediklarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari, stressga chidamliligi va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshirish orqali kasalxonagacha bo‘lgan bosqichda ko‘rsatiladigan tibbiy yordamning tezkorligi va samaradorligini yuksaltirishni ko‘zda tutadi. Xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida paramediklar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari:

- Paramediklarning shoshilinch tibbiy yordam tizimidagi o‘rni, huquq va majburiyatlarini tahlil qilish;
- Favqulodda holatlarda paramediklar tomonidan bajariladigan amaliy harakatlar va qaror qabul qilish jarayonini o‘rganish;
- Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda paramediklar faoliyatiga ta‘sir etuvchi tashkiliy, texnik va psixologik omillarni aniqlash;
- Tez tibbiy yordam brigadalari tarkibida paramediklar va boshqa tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini tahlil qilish;
- Xalqaro tajriba asosida paramediklar faoliyatini samarali tashkil etishning ilg‘or usullarini o‘rganish;
- Paramediklar kasbiy malakasini oshirish, uzluksiz ta‘lim va simulyatsion mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish
- Shoshilinch tibbiy yordamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan tashkiliy-amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda ilmiy va amaliy usullar birgalikda qo‘llanildi. Asosiy usullar quyidagilar: Adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish — milliy va xalqaro ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar, shoshilinch tibbiy yordam bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar tahlil qilindi. Bu usul paramediklar faoliyatidagi samaradorlikni baholash uchun nazariy asos yaratdi. Kuzatuv va so‘rovlar — shoshilinch tibbiy yordam xizmatida ishlovchi paramediklar bilan so‘rov va intervyular o‘tkazildi, ular ish jarayonidagi qiyinchiliklar, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini aniqlashga yordam berdi. Statistik tahlil — to‘plangan ma‘lumotlar kvantitativ va sifat jihatidan tahlil qilindi. Bu metod yordamida paramediklar ish unumdorligi, bemorlarga ko‘rsatilgan yordam va favqulodda vaziyatlarda ish tezligi o‘lchandi. Solishtirma tahlil — milliy va xalqaro tajribalar solishtirildi. Ushbu usul orqali samarali ish tartiblari va innovatsion yondashuvlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Simulyatsion mashg‘ulotlar — paramediklar ishtirokida turli favqulodda vaziyatlarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Bu usul ish jarayonidagi xatoliklar va muammolarni aniqlash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu usullar



“The Future of Emergency Medical Care: The Role of Paramedics – Advancing Professional Training”



birgalikda paramediklar faoliyatini kompleks o'rganish, ish jarayonlarini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalariga ko'ra, paramediklar faoliyatini samarali tashkil etish quyidagi omillarga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi:

- aniq ishlab chiqilgan klinik protokollar va algoritmlarning mavjudligi;
- tezkor aloqa va dispatcherlik tizimining mukammalligi;
- zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- paramediklarning kasbiy tayyorgarligi, stressga chidamliligi va jamoada ishlash ko'nikmalari.

Shuningdek, paramediklarning doimiy ravishda malaka oshirib borishi, simulyatsion mashg'ulotlarda ishtirok etishi va favqulodda vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish shoshilinch tibbiy yordam samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Tadqiqot xulosasi: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Paramediklar shoshilinch tibbiy yordam tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularning malakasi va tayyorgarligi bemor hayotini saqlash darajasiga bevosita ta'sir qiladi.
2. Samarali faoliyat quyidagi omillarga bog'liq:
 - aniq ishlab chiqilgan klinik protokollar va algoritmlar;
 - tezkor aloqa va dispatcherlik tizimining mukammalligi;
 - zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlanganlik;
 - paramediklarning kasbiy malakasi, stressga chidamliligi, jamoada ishlash qobiliyati.
3. Malaka oshirish va simulyatsion mashg'ulotlarda ishtirok etish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish shoshilinch tibbiy yordam samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
4. Tashkiliy va texnologik yondashuvlarni optimallashtirish orqali bemorlarga ko'rsatiladigan yordam sifatini oshirish va ish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Natijada, paramediklar faoliyatini ilmiy asosda samarali tashkil etish shoshilinch tibbiy yordam tizimining umumiy sifatini oshiradi va bemorlar hayotini saqlash imkoniyatini sezilarli darajada kuchaytiradi.

BIRLAMCHI TIBBIY YORDAM VA SHOSHILINCH XIZMAT UYG'UNLIGI: PARAMEDIKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY- AMALIY ASOSLARI

Mo'minov Jahongir Zokirjon o'g'li
Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda birlamchi tibbiy yordam tizimi va shoshilinch tibbiy xizmat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Paramediklarning favqulodda holatlardagi klinik faoliyati, umumiy amaliyot shifokori bilan axborot almashinuvi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali xizmat sifatini oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan boshqaruv modeli asosida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: birlamchi tibbiy yordam, shoshilinch xizmat, paramedik, integratsiya, klinik samaradorlik, raqamli sog'liqni saqlash.

Kirish: Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatning uzluksizligi muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bemorning birlamchi murojaatidan tortib shoshilinch holatgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Ushbu jarayonda paramediklar shoshilinch tibbiy yordamning tayanch bo'g'ini sifatida xizmat qiladi, UASH esa bemorning uzoq muddatli sog'liq holatini boshqaradi.

Mazkur ilmiy ishning maqsadi – paramedik faoliyatini birlamchi tibbiy yordam bilan uyg'unlashtirish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini asoslashdir.





1. Birlamchi va shoshilinch tibbiy yordam tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi

Birlamchi tibbiy yordam profilaktika, erta diagnostika va reabilitatsiyani o‘z ichiga oladi. Shoshilinch yordam esa hayot uchun xavfli holatlarni tezkor bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu ikki bo‘g‘inning uzviyligi:

- bemorning holati haqida to‘liq axborotga ega bo‘lish;
- davolash jarayonida uzilishlarning oldini olish;
- ortiqcha shifoxonaga yotqizishni kamaytirish imkonini beradi.

2. Paramediklarning klinik samaradorligini oshirish omillari

Paramedik faoliyatining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- kasbiy tayyorgarlik darajasi;

- texnik ta‘minot;

- aloqa tizimining tezkorligi;

- klinik protokollarga rioya qilish;

- UASH bilan muvofiqlashtirilgan faoliyat.

Simulyatsion treninglar va kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi muhim ahamiyatga ega.

3. Axborot almashinuvi va raqamli integratsiya

Elektron sog‘liqni saqlash tizimi orqali:

- paramedik chaqiruv natijalarini UASHga uzatadi;

- bemorning oldingi kasalliklari tez aniqlanadi;

- klinik qarorlar aniqligi oshadi.

Telemeditsina uzoq hududlar uchun ayniqsa samarali.

4. Kadrlar tayyorlash va boshqaruv modeli

Integratsiyalashgan kadrlar siyosati quyidagilarni nazarda tutadi:

- qo‘shma o‘quv dasturlari;

- malaka oshirishning yagona platformasi;

- baholashning shaffof tizimi;

- motivatsiya mexanizmlari.

5. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi uchun istiqbollar

Hududiy sog‘liqni saqlash markazlari bazasida integratsiyalashgan xizmat modelini yaratish aholiga ko‘rsatiladigan yordam sifatini oshiradi.

Xulosa: Paramedik va UASH uyg‘unligi sog‘liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAMDA PARAMEDIK VA UMUMIY AMALIYOT SHIFOKORI (UASH) HAMKORLIGI: AMALIY INTEGRATSIYA VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Mo‘minov Jahongir Zokirjon o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoshilinch tibbiy yordam tizimida paramediklar va umumiy amaliyot shifokorlari (UASH) o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Birlamchi tibbiy yordam bilan shoshilinch xizmat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bemorga ko‘rsatilayotgan yordam sifati, tezkorligi va uzluksizligiga ta‘siri tahlil qilinadi. Amaliy integratsiya mexanizmlari, raqamli texnologiyalar va kasbiy rivojlanish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: UASH, paramedik, birlamchi tibbiy yordam, shoshilinch yordam, integratsiya, telemeditsina.

Kirish: Birlamchi tibbiy yordam tizimida UASH bemorning sog‘lig‘ini doimiy nazorat qiluvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi. Favqulodda holatlarda esa paramediklar birinchi bo‘lib tibbiy





yordam ko‘rsatadi. Ushbu ikki bo‘g‘in o‘rtasidagi samarali hamkorlik bemorning hayotini saqlab qolish, asoratlarni kamaytirish va davolash jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi.

1. UASH va paramediklarning funksional bog‘liqligi

UASH va paramediklar quyidagi yo‘nalishlarda uzviy hamkorlik qiladi:

Surunkali kasalligi bor bemorlar bo‘yicha ma‘lumot almashish;

Favqulodda chaqiruvlardan keyingi kuzatuvni UASH tomonidan davom ettirish;

Reabilitatsiya va profilaktika choralarini rejalashtirish;

Risk guruhidagi bemorlarni birgalikda monitoring qilish.

Bu integratsiya qayta shoshilinch chaqiruvlar sonini kamaytiradi.

2. Amaliyotda integratsiya mexanizmlari

Zamonaviy amaliyotda integratsiya quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Elektron tibbiy karta orqali umumiy ma‘lumot bazasi;

Telekonsultatsiya – paramedikning voqea joyidan UASH yoki mutaxassis bilan aloqa qilishi;

Birgalikdagi klinik protokollar;

Hududiy tibbiy brigadalar o‘rtasida tezkor aloqa tizimi.

Bu tizimlar qaror qabul qilishni tezlashtiradi.

3. UASH amaliyotida paramediklarning roli

Paramediklar UASH faoliyatini quyidagicha to‘ldiradi:

Uy sharoitida bemorning holatini baholash;

O‘tkir holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish;

Bemorni ixtisoslashgan muassasaga yo‘naltirish;

Davolashdan keyingi monitoring natijalarini UASHga yetkazish.

Bu holat ayniqsa chekka hududlarda muhim.

4. Kasbiy rivojlanishda hamkorlik modeli

UASH va paramediklarning birgalikda treninglardan o‘tishi quyidagi natijalarni beradi:

Klinik qarorlar uyg‘unligi;

Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi;

Xatoliklarning kamayishi;

Tibbiy xizmat sifati oshishi.

Simulyatsion mashg‘ulotlar integratsiyani kuchaytiradi.

Xulosa: Paramedik va UASH hamkorligi shoshilinch yordam samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, yagona protokollar va uzluksiz kasbiy rivojlanish orqali sog‘liqni saqlash tizimi barqaror rivojlanadi.

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM KELAJAGI: PARAMEDIKLARNING ROLI VA KASBIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Mo‘minov Jahongir Zokirjon o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoshilinch tibbiy yordam tizimining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, paramediklarning sog‘liqni saqlash tizimidagi roli hamda ularning kasbiy rivojlanishini ta‘minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, telemeditsina, simulyatsion ta‘lim va malaka oshirish dasturlarining paramedik faoliyatiga ta‘siri yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida paramediklar tayyorlash va ularning professional kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: shoshilinch tibbiy yordam, paramedik, kasbiy rivojlanish, simulyatsiya, telemeditsina, sog‘liqni saqlash innovatsiyalari.





Kirish: Shoshilinch tibbiy yordam (ShTY) tizimi inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya, yo'l-transport hodisalari va surunkali kasalliklarning ko'payishi tezkor va malakali tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonda paramediklar – birinchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar sifatida – bemorning hayotini saqlab qolish, holatini barqarorlashtirish va shifoxonaga xavfsiz yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

1. Paramediklarning zamonaviy roli

Bugungi kunda paramediklarning vazifalari faqat transportirovka bilan cheklanib qolmaydi. Ular quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Tezkor diagnostika: yurak urishi, arterial bosim, nafas olish ko'rsatkichlarini baholash.

Hayotni saqlab qoluvchi muolajalar: sun'iy nafas berish, defibrillyatsiya, qon ketishni to'xtatish.

Psixologik yordam: favqulodda holatlarda bemor va uning yaqinlariga ruhiy tayanch ko'rsatish.

Tibbiy axborotni uzatish: shifokorlar bilan onlayn aloqa orqali bemor holatini yetkazish.

Rivojlangan davlatlarda paramediklar mustaqil klinik qaror qabul qilish vakolatiga ham ega bo'lib bormoqda.

2. Shoshilinch tibbiy yordam kelajagida texnologiyalar

Kelajakda ShTY tizimi quyidagi innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi:

Telemeditsina: masofadan shifokor maslahatini olish.

Sun'iy intellekt: holatni tez tahlil qilish va qaror qabul qilishga yordam berish.

Simulyatsion treninglar: real vaziyatga yaqin mashg'ulotlar orqali amaliy ko'nikmalarni oshirish.

Mobil tibbiy qurilmalar: portativ EKG, kislorod monitoringi, tezkor laboratoriya testlari.

Bu texnologiyalar paramediklarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

3. Paramediklarning kasbiy rivojlanishi

Kasbiy rivojlanish uzluksiz ta'lim tamoyiliga asoslanishi lozim. Asosiy yo'nalishlar:

Malaka oshirish kurslari va sertifikatatsiya.

Amaliy simulyatsiya mashg'ulotlari.

Ilmiy tadqiqot va tajriba almashinuvi.

Xorijiy tajribani o'rganish.

Kommunikativ va stressga chidamlilik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bu omillar paramediklarning professional darajasini oshirib, xizmat sifatini yaxshilaydi.

4. O'zbekiston sharoitida rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda shoshilinch tibbiy yordam tizimini modernizatsiya qilish jarayonida quyidagilar muhim:

Paramediklar tayyorlash dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Simulyatsion markazlarni ko'paytirish.

Raqamli tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish.

Uzoq hududlarda telemeditsina imkoniyatlarini kengaytirish.

Kasbiy motivatsiya va ijtimoiy himoyani kuchaytirish.

Xulosa: Paramediklar shoshilinch tibbiy yordam tizimining tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Ularning kasbiy rivojlanishi bevosita aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va inson hayotini saqlab qolish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, uzluksiz





ta’lim va xalqaro tajribani integratsiya qilish kelajakda ShTY tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

PARAMEDIKLAR FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISH: SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI

Mo‘minov Jahongir Zokirjon o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada paramediklar faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilish masalalari yoritiladi. Shoshilinch tibbiy yordam xizmatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda xizmat sifatini yaxshilash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar va ularni O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: paramedik, innovatsiya, shoshilinch yordam, simulyatsiya, telemeditsina, raqamli sog‘liqni saqlash.

Kirish: So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadallashmoqda. Shoshilinch tibbiy yordam xizmati esa ushbu jarayonning eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Paramediklar bemorga birinchi bo‘lib yetib boradigan mutaxassislar bo‘lib, ularning malakasi, tezkorligi va texnologiyadan foydalanish ko‘nikmalari bevosita davolash natijasiga ta’sir qiladi.

1. Paramediklar faoliyatini modernizatsiya qilish zarurati

An’anaviy yondashuvlar zamonaviy ehtiyojlarni to‘liq qondira olmayapti. Quyidagi omillar modernizatsiyani talab qiladi:

Favqulodda holatlar sonining oshishi;

Aholining tibbiy savodxonligi va talablarining ortishi;

Murakkab klinik holatlarning ko‘payishi;

Tibbiy texnologiyalarning tez yangilanishi.

Shu sababli paramediklarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Innovatsion texnologiyalarning ta’siri

Paramedik amaliyotiga quyidagi texnologiyalar jadal kirib kelmoqda:

Mobil diagnostika vositalari – joyida tez tahlil qilish imkoniyati;

Telekonsultatsiya – shifokor bilan real vaqt rejimida maslahat;

Elektron tibbiy karta – tezkor ma’lumot almashinuvi;

Sun’iy intellekt yordamchi tizimlari – klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash.

Bu texnologiyalar xatoliklarni kamaytirib, yordam tezligini oshiradi.

3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

Zamonaviy paramedik quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

Klinik fikrlash va tez qaror qabul qilish;

Texnik qurilmalarni boshqarish;

Jamoa bilan samarali ishlash;

Favqulodda stressga moslashuv;

Etika va muloqot madaniyati.

Ta’limda simulyatsiya, interaktiv treninglar va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lishi kerak.

4. Xalqaro tajriba va milliy imkoniyatlar

AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda paramediklar mustaqil klinik protokollar asosida ishlaydi. Ularning tajribasini O‘zbekistonda joriy etish uchun:

Normativ-huquqiy bazani yangilash;





Ta’lim standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish;
Raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash lozim.

Xulosa

Paramediklar faoliyatini modernizatsiya qilish shoshilinch tibbiy yordam sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiyalarni joriy etish va uzluksiz kasbiy rivojlanish orqali inson hayotini saqlab qolish imkoniyatlari yanada kengayadi.

ZAMONAVIY TEZ YORDAM XODIMLARINI TAYYORLASH VA ULARNING KASBIY MALAKASINI OSHIRISH TIZIMI

D.M.Isroilova - O‘zbekiston Jahon tillari universiteti, Ingliz tili 1 fakulteti, ingliz tili amaliy fanlar kafedrası professori.

Zamonaviy tibbiyot tizimida tez yordam xodimlarining malakasi bemorlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tez yordam paramediki nafaqat klinik bilimga, balki tezkor qaror qabul qilish va favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. So‘nggi yillarda tibbiyot texnologiyalari tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgani sababli, paramediklarning kasbiy kompetensiyasini doimiy oshirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqola zamonaviy paramediklarni tayyorlash jarayoni, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tahlil qiladi.

Ushbu maqolada adabiyotlar tahlili va mavjud ilmiy manbalar asosida zamonaviy tez yordam xodimlarini tayyorlash tizimi o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

- Nazariy manbalarni tahlil qilish – xalqaro standartlar va tavsiyalar, o‘quv dasturlari, sertifikatlashtirish talablari.

- Amaliy treninglar va simulyatsion mashg‘ulotlarni tahlil qilish – paramediklarning favqulodda vaziyatlarda malakasini oshirish metodlari.

- Kasbiy qayta tayyorlash dasturlari – kurslar, seminarlar va onlayn treninglar samaradorligi.

Tahlil natijalariga ko‘ra:

1. Zamonaviy paramedik tayyorlash jarayoni nazariy va amaliy komponentlarni birlashtirishi kerak.

2. Simulyatsion treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar paramediklarning tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

3. Doimiy qayta tayyorlash va sertifikatlash tizimi xodimlarning kasbiy malakasini yuqori darajada saqlashga yordam beradi.

4. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, mobil ilovalar va telemeditsina, paramediklarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilashda muhim vosita hisoblanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, paramediklarni tayyorlash tizimi tizimli va zamonaviy bo‘lishi zarur. Naqadar samarali mashg‘ulotlar o‘tkazilsa, favqulodda vaziyatlarda tez yordam ko‘rsatish sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos keluvchi sertifikatlashtirish tizimi joriy etilishi xodimlarning kasbiy barqarorligini ta’minlaydi. Kelajakda o‘quv dasturlariga virtual haqiqat (VR), sun’iy intellekt yordamida treninglar va interaktiv platformalar kiritilishi samaradorlikni yanada oshiradi.

Zamonaviy tez yordam xodimlarini tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish tizimi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Simulyatsion mashg‘ulotlar, doimiy qayta tayyorlash va xalqaro standartlarga mos sertifikatlash



tizimi paramediklarning malakasini doimiy ravishda oshirishga imkon yaratadi. Natijada, bu tizim bemorlar uchun sifatli tez yordam xizmatini kafolatlaydi va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi.

XORIJLIK TALABALAR SALOMATLIGINI SAQLASHDA TIBBIY XIZMATLARNI TASHKIL ETISH MASALALARI


Jabbarova Umriniso Raxmat qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti

Kirish: So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi oliy ta‘lim tizimida xalqaro integratsiyani kuchaytirdi. O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari, xususan tibbiyot universitetlari xorijiy talabalar uchun tobora jozibador bo‘lib bormoqda. Bu holat nafaqat ta‘lim sifatini oshirish, balki xorijlik talabalar salomatligini saqlash, ularga tezkor va samarali tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shoshilinch tibbiy yordam tizimi zamonaviy sog‘liqni saqlashning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, unda paramediklarning roli tobora ortib bormoqda. Xorijlik talabalar kontingentining ko‘payishi sharoitida shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarida ishlovchi paramediklar nafaqat tibbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki madaniyatlararo muloqot, psixologik yondashuv va til kompetensiyalariga ham ega bo‘lishi talab etiladi.

Mazkur ma‘ruza-tezis Samarqand davlat tibbiyot universiteti misolida xorijlik talabalar kontingenti dinamikasi va ularning salomatligini saqlash muammolarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonda shoshilinch tibbiy yordam va paramediklar faoliyatining ahamiyatini asoslashga bag‘ishlanadi.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqotda Samarqand davlat tibbiyot universitetining 2020-2025 yillar davomida xorijlik talabalarni qabul qilish va bitirish bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlaridan foydalanildi. Olingan ma‘lumotlar dinamik va taqqoslama tahlil usullari yordamida o‘rganildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida xorijlik talabalar salomatligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida xorijlik talabalar orasida tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlari, shoshilinch holatlarda murojaat qilish sabablari hamda ushbu holatlarda tibbiy xodimlar, jumladan paramediklarning kasbiy tayyorgarligi muhim mezon sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama: Tahlil natijalariga ko‘ra, Samarqand davlat tibbiyot universitetida hozirgi kunda jami 4558 nafar xorijlik talaba tahsil olayotgani aniqlandi. Ularning asosiy qismini Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya Respublikasi va Turkiya fuqarolari tashkil etadi. Bunday geografik xilma-xillik xorijlik talabalar salomatligiga yondashuvda yagona model yetarli emasligini ko‘rsatadi.





Xorijlik talabalar kontingentining semestrlarga nisbatan notekis taqsimlanishi aniqlanib, eng yuqori ko‘rsatkichlar 1-3 va 10-12-semestrlarga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. Ushbu davrlarda moslashuv jarayoni, o‘quv yuklamasining yuqoriligi va stress omillari kuchayib, shoshilinch tibbiy yordamga ehtiyoj ortadi. Aynan shu bosqichlarda paramediklarning tezkor, malakali va madaniy jihatdan moslashuvchan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijlik talabalar tibbiy xizmatlardan foydalanishda til va madaniy to‘siqlar, sog‘liqni saqlash tizimi haqida yetarli axborotga ega emaslik hamda psixologik omillar sababli ko‘pincha kech murojaat qiladi. Bu holat shoshilinch vaziyatlarda asoratlar xavfini oshiradi. Paramediklar aynan ushbu muammolarni yumshatishda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi, chunki ular ko‘pincha bemor bilan birinchi aloqaga kirishuvchi mutaxassislardir.

Zamonaviy shoshilinch tibbiy yordam tizimida paramediklarning vazifalari faqat tezkor yordam ko‘rsatish bilan cheklanmay, balki bemorning psixologik holatini baholash, stressni kamaytirish va zarur hollarda to‘g‘ri yo‘naltirishni ham o‘z ichiga oladi. Xorijlik talabalar bilan ishlashda bu jihatlar yanada dolzarb bo‘lib, kasbiy tayyorgarlikning yangi yondashuvlarini talab etadi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar: O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorijlik talabalar sonining ortib borishi oliy ta‘lim muassasalarida tibbiy xizmatlar, xususan shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirishni talab etadi. Bu jarayonda paramediklarning kasbiy roli va tayyorgarligi muhim strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- xorijlik talabalar bilan ishlovchi paramediklar uchun ko‘p tilli muloqot va madaniy sezgirlikka oid maxsus tayyorgarlik dasturlarini joriy etish;
- shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarida xorijlik talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan algoritmlar ishlab chiqish;
- moslashuv davrida xorijlik talabalar uchun profilaktik va tushuntiruvchi tadbirlarni kuchaytirish;
- paramediklar faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari bilan integratsiyalash;
- xalqaro tajribani o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish.

